



**“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatining 2025-yil yakunlari
hamda 2026-yil rejalari” mavzusida matbuot anjumani
PRESS-RELIZI**

Toshkent shahri

2026-yil 12-mart

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritish maqsadida 2026-yil 12-mart kuni OAV uchun kontent tayyorlash markazida **“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatining 2025-yil yakunlari hamda 2026-yil rejalari”** mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tadi.

**O‘zbekistonda 2025-yilda 5,4 mln aholi bandligi ta‘minlandi va 2,3 mln
kambag‘al oilaning daromadini oshirish choralari ko‘rildi**

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. 2025-yil davomida Prezident qarorlari asosida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va mahallalar iqtisodiy faolligini oshirish borasida salmoqli natijalarga erishildi.

**“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi: 523 ming oila qo‘llab-
quvvatlandi**

2024-yil 23-sentabrda qabul qilingan **PQ-330-son** qarorga muvofiq amalga oshirilayotgan **“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi** doirasida 2025-yilda **761 mingta** oilaning (3,2 mln aholi) imkoniyatlari va ehtiyojlari o‘rganilib, ular uchun “individual rejalar” ishlab chiqildi.

Ushbu rejalar asosida 523 mingta kambag‘al oila (2,3 mln aholi) daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olindi. Bunda:

- **369 ming nafar** fuqaro ishga joylashtirildi;
- **528 ming nafar** tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilindi;
- **54 ming nafar** kasb-hunarga o‘qitildi.

Kambag‘al oilalarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida **2,2 trln so‘m kredit** ajratildi va **265 mlrd so‘m mablag‘lar moliyaviy ko‘mak sifatida berildi.**

Shuningdek, mahallalarda hokim yordamchilari tashabbusi bilan **410 mingga yaqin mikroloyihalar** ishga tushirilib, **840 ming nafar aholining daromadi oshirildi.**

Mahalla infratuzilmasini rivojlantirish daromad manbalarini kengaytirmoqda

2025-yilda “og‘ir” toifadagi **864 ta mahallada** sug‘orish infratuzilmasi barpo etildi va **467 ming xonadon ilk bor suv bilan ta’minlandi.**

Buning doirasida:

- **2 ming km** sug‘orish tarmoqlari betonlandi;
- **174 km** lotoklar qurildi;
- **14 ta** suv inshooti barpo etildi;
- **448 ta** nasos agregati o‘rnatildi;
- **862 ta** sug‘orish quduqlari qazildi;
- **371 km** bosimli quvurlar tortilishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, **959 ta mahallada elektr ta’minoti yaxshilanib, 1 745 ta transformator, 129 mingta elektr ustunlari va 4 533 km elektr tarmoqlari** o‘rnatildi.

Pilot loyihalar orqali 200 ming oilaning daromadi oshirildi

2025-yilda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha **32 ta yo‘nalishda pilot loyihalar** amalga oshirildi. Jumladan:

- **“Kompaniya – kooperativ – dehqon xo‘jaligi”** tamoyili asosida **484 ta kooperativ** tashkil etilib, **16 ming kambag‘al oila a‘zolari** ushbu kooperativlarga jalb qilindi;
- **21 ming gektar** o‘rmon fondi yerlari **8 667 ta** kambag‘al oilaga ijaraga berildi;
- **52 ta turizm mahallasida** xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlantirildi;
- **40 ming yosh elektron tijorat yo‘nalishida o‘qitildi.**

Natijada **200 ming kambag‘al oilaning daromadi oshirildi.**

Tomorqa va ijara yerlaridan samarali foydalanish

2025-yilda aholining **5,1 mln xonadon tomorqalari** xatlovdan o‘tkazilib, **478 ming gektar yer maydoni** bo‘yicha ma’lumotlar shakllantirildi.

Yerlardan samarali foydalanish maqsadida **5 986 nafar** usta-dehqon va agronom, **1 921 nafar** lider tadbirkor mahallalarga biriktirildi.

Shuningdek, **1 944 ta** mahallada **“Bir mahalla – bir mahsulot”** tamoyili joriy etildi.

Bu loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun **3 trln so'm** bank kreditlari, **385 mlrd so'm** agrokompaniyalar mablag'lari, **134 mlrd so'm** subsidiya va lizing mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, **770 ming fuqaroga 230 ming gektar yer maydoni ijaraga berildi.**

2025-yilda 5,4 mln aholi bandligi ta'minlandi

Bugungi kunda mamlakat aholisi **38 mln nafardan oshdi.**

2025-yilda mehnat bozorida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida **5,4 mln aholi daromadli mehnat bilan ta'minlandi. Shundan: 1,3 mln nafari doimiy ishga joylashtirildi, 2,1 mln nafari tadbirkorlikka jalb qilindi.**

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida **134 trln so'm kredit mablag'lari** ajratildi.

Mehnat huquqlari va norasmiy bandlikka qarshi kurash

Mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida **21 mingdan ortiq** tekshiruvlar o'tkazildi hamda **9 mingdan ortiq** mansabdor shaxslarga **24,2 mlrd so'm jarima** qo'llanildi.

Natijada:

- **6,4 ming fuqaroga 67 mlrd so'm ish haqi** undirib berildi;
- **18 ming** nafar xodimning mehnat huquqlari tiklandi;
- **88,7 ming norasmiy ish o'rinlari rasmiylashtirildi.**

2026-yil uchun asosiy vazifalar:

- kambag'allik darajasini **5,8 foizdan 2,8 foizgacha kamaytirish;**
- **1 mln aholini doimiy ish bilan ta'minlash;**
- **4 mln aholining daromadini oshirish** rejalashtirilgan.

Shuningdek, **263 ming** kambag'al oila manzilli xizmatlar bilan qamrab olinadi, **3,5 ming** mahalla kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi. **165 trln so'm** mablag' hisobidan yangi iqtisodiy loyihalar amalga oshiriladi.